



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI  
STATISTIKA AGENTLIGI**

2024- yil “24” iyun

BUYRUQ № 145

Toshkent sh.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-114-son qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida,  
**BUYURAMAN:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-martdagi PQ-114-son qarori bilan **“Statistik registrlarning raqamli bazasi”** axborot tizimini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish, shuningdek, ushbu axborot tizimi tamoyillarini va foydalanish jarayonlarini o‘z ichiga olgan nizom ishlab chiqish belgilanganligi ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin.
2. Statistik registrlarning raqamli bazasini yuritish va undan foydalanish tartibi to‘g‘risida nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
3. Statistika agentligining tegishli boshqarmalari tomonidan statistik registrlarning raqamli bazasini ishlab chiqish va undan foydalanish mazkur buyruq bilan tasdiqlangan nizom talablariga qat’iy rioya qilgan holda amalga oshirilsin.
4. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash va ijro intizomi nazorati boshqarmasi (G. Salixova) ushbu buyruqni Statistika agentligining markaziy apparati boshqarmalariga yetkazilishini ta‘minlasin.
5. Ushbu buyruq ijrosini nazorat qilish Statistika agentligi direktori o‘rinbosarlari A. Ikramov va Z. Ziyayev zimmasiga yuklatilsin.

Direktor

B. Begalov